


## IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH


2022-yil yanvar-mart oylarida viloyatning asosiy kapitalini ko‘paytirishga 5 010,2 mlrd. so‘m miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘sish sur’ati 104,5 %ni tashkil qildi. Asosiy kapitalga kiritilgan jami investitsiyalarning 1 632,4 mlrd. so‘mi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar 2022- yilning yanvar-mart oylarida 1 700,0 ming so‘mni tashkil etdi.

2022-yil yanvar-mart oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning deyarli yarmidan ko‘p ulushi, ya’ni 51,4 foizi viloyatning 5 ta hududi hissasiga, jumladan, Olmaliq shahri (11,5 %), Qibray tumani (15,1 %), Chirchiq shahri (7,6 %), Zangiota tumani (10,4 %) va Nurafshon shahri (6,4 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.

**2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi (mlrd. so‘m)**




**2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o'sish sur'atlari (%da)**



Ayrim tumanlarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi. Jumladan, o'tgan yilning shu davriga nisbatan Parkent tumanida – 3,6 m., Bekobod shahrida – 3,1 m., Yangiyo'l tumanida – 2,9 m., Qibray tumanida – 2,6 m., Yangiyo'l shahrida – 2,1 m., Toshkent tumanida – 198,6 % o'sish kuzatildi.

**2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida  
aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar miqdori  
(ming so‘mda, %da)**



■ Aholi jon boshiga                    □ O‘sish sur‘ati

Hududlar kesimida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan investitsiyalar hajmining yuqori ko‘rsatkichlari Nurafshon shahrida - 6 087,3 ming so‘m, Bekobod shahrida - 2 787,4 ming so‘m, Ohangaron shahrida - 4 286,6 ming so‘m, Olmaliq shahrida - 4 251,1 ming so‘m va Qibray tumanida - 4 369,0 ming so‘mni tashkil etdi. Aksincha, past ko‘rsatkich Oqqo‘rg‘on tumanida – 263,6 ming so‘mni, Bo‘ka tumanida - 366,7 ming so‘mni va Bekobod tumanida – 209,3 ming so‘mni tashkil etdi.


**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi**

	<i>mldr. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>yakunga nisbatan %</i>
<b>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar</b>	<b>5010,2</b>	<b>104,5</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>396,6</b>	<b>87,5</b>	<b>7,9</b>
budjet mablag'lari	136,2	139,5	2,7
O'zR Moliya vazirligi huzuridagi suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi	16,2	126,5	0,3
Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari	104,1	142,2	2,1
Hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	140,1	51,4	2,8
<b>Markazlashmagan investitsiyalar</b>	<b>4613,6</b>	<b>106,3</b>	<b>92,1</b>
korxonalarning o'z mablag'lari	2001,2	76,3	39,9
tijorat bank kreditlari va boshqa tashkilotlar qarz mablag'lari	406,0	140,3	8,1
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	901,6	185,7	18,0
boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	5,6	21,4	0,1
aholi mablag'lari	714,2	109,9	14,3
kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	585,0	2,4 m.	11,7

2022- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalariga ko‘ra, eng yuqori ko‘rsatkich (jami investitsiyalarning 39,9 %i) korxonalarining o‘z mablag‘lari hisobiga (2 001,2 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.


**2022- yil yanvar-mart oylari uchun asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari**

**Markazlashgan  
investitsiyalar**



- byudjet mablag‘idan
- tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari
- hukumat kafolati ostida chet el kreditlari
- suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi

**Markazlashmagan  
investitsiyalar**



- korxonalarining o‘z mablag‘lari
- tijorat bank kreditlari va boshqa tashkilotlar qarz mablag‘lari
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar
- boshqa qarz mablag‘lari
- aholi mablag‘lari
- kafolatlanmagan xorijiy kreditlar

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning o‘zlashtirilgan hajmi 2022- yilning yanvar-mart oylarida 901,6 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 185,7 %ni tashkil qildi. Bunda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich Qibray (400,9 mlrd. so‘m) tumani va Chirchiq shahriga (100,2 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi. Aksincha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish bo‘yicha past natijalar Yangiyo‘l shahrida (1,0 mlrd. so‘m) va Chinoz tumanida (0,1 mlrd. so‘m) kuzatildi.

**Asosiy kapitalga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya  
va kafolatlanmagan kreditlar**

(mlrd. so‘m)

	Jami xorijiy investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To‘g‘ridan- to‘g‘ri xorijiy investitsiya	shu jumladan:	Kafolat- lanmagan kreditlar
		Investitsiya	Kredit			
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>1632,4</b>	<b>907,2</b>	<b>725,2</b>	<b>901,6</b>	<b>5,6</b>	<b>585,0</b>
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	162,9	46,5	116,4	46,5		98,1
Olmaliq	17,8	17,6	0,2	17,5		0,2
Angren	1,2		1,2	0,0		1,2
Bekobod	46,4	46,4		46,4		
Ohangaron	54,9	12,8	42,1	12,8		42,1
Chirchiq	197,5	100,2	97,3	100,2		83,9
Yangiyo‘l	3,4	1,0	2,4	1,0		
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo‘rg‘on						
Ohangaron	92,0	92,0		92,0	0,0	
Bekobod	0,6		0,6			
Bo‘stonliq	34,5	33,8	0,7	33,8		
Bo‘ka	0,2		0,2			
Quyi Chirchiq	174,5	13,3	161,2	13,3		161,2
Zangiota	254,9	59,7	195,2	59,7		156,7
Yuqori Chirchq	26,1		26,1			24,6
Qibray	465,3	400,9	64,4	400,9		3,8
Parkent	13,2		13,2			13,0
Piskent	2,1		2,1			
O‘rta Chirchiq	0,2		0,2			
Chinoz	0,3	0,1	0,2	0,1	0,1	0,2
Yangiyo‘l	84,4	82,9	1,5	77,3	5,5	
Toshkent						

**2022- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning  
texnologik tarkibi**

	<i>Jami</i> <i>mldr. so‘m</i>	<i>foizda</i>	<i>Davlat</i>	<i>foizda</i>	<i>Nodavlat</i>	<i>foizda</i>
<b>Jami, mldr. so‘m</b>	<b>5010,2</b>	<b>100</b>	<b>256,6</b>	<b>5,1</b>	<b>4753,6</b>	<b>94,9</b>
<i>shu jumladan: umumi hajmga nisbatan %da</i>						
qurilish-montaj ishlari	2376,0	47,5	198,8	4,0	2177,2	43,5
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlar	1868,4	37,3	50,7	1,0	1817,7	36,3
boshqa harajatlar	765,8	15,2	7,1	0,1	758,7	15,1

2022- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining qurilish-montaj ishlari, yo‘naltirilgan ulushi 47,5 %ni tashkil qilib, umumi hajmga nisbatan yuqori ulushga ega bo‘ldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar  
(umumi hajmga nisbatan % hisobida)**


*(mlrd. so‘m)*

	<i>yanvar-mart</i>			
	<i>2021- y.</i>	<i>Umumi hajmga nisbatan %da</i>	<i>2022- y.</i>	<i>Umumi hajmga nisbatan %da</i>
<b>Jami:</b>	<b>4206,0</b>	<b>100,0</b>	<b>5010,2</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan: iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha</i>				
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	282,1	6,7	627,0	12,5
tog‘-kon sanoati	2,4	0,1	544,7	10,9
qayta ishslash sanoati	614,0	14,6	1 744,0	34,8

**Investitsiya va qurilish ishlari**

	<i>yanvar-mart</i>			
	<i>2021- y.</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan %da</i>	<i>2022- y.</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan %da</i>
elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash	223,1	5,3	541,4	10,8
suv bilan ta’minlanish, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va yo‘q qilish	22,8	0,5	117,3	2,3
qurilish	54,1	1,3	126,3	2,5
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash	411,1	9,8	64,0	1,3
tashish va saqlash	568,9	13,5	57,5	1,1
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	19,0	0,5	17,6	0,4
aloqa va axborotlashtirish	15,1	0,4	25,8	0,5
moliya va sug‘urta faoliyati	7,7	0,2	15,3	0,3
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq ishlar	1,8	0	18,9	0,4
malakaviy, ilmiy va texnikaviy faoliyat	135,2	3,2	59,5	1,2
ma’muriy va qo‘srimcha xizmatlar	0	0	2,0	0
davlat boshqaruvi va mudofaasi; majburiy ijtimoiy ta’minot	20,8	0,5	60,0	1,2
ta’lim	23,1	0,5	71,3	1,4
sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	36,9	0,9	25,2	0,5
san’at, ko‘ngil ochish va dam olish	60,2	1,4	16,3	0,3
uy-joy qurilishi	775,4	18,4	771,2	15,5
boshqa faoliyat turlari	932,3	22,2	104,9	2,1

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlarni  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish sanoatida – 1 744,0 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmida 34,8 %) tashkil etdi. Tog'kon sanoatida – 544,7 mlrd. so'm (10,9 %), uy-joy qurilishida – 771,2 mlrd. so'm (15,4 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 627,0 mlrd. so'm (12,5 %), davlat boshqaruvi va mudofaasi majburiy ijtimoiy ta'minotida – 60,0 mlrd. so'm (1,2 %), san'at, ko'ngil ochish va dam olishda – 16,3 mlrd. so'm (0,3 %), tashish va saqlashda – 57,5 mlrd. so'm (1,1 %), suv bilan ta'minlanish, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va yo'q qilishda – 117,3 mlrd. so'm (2,3 %), malakaviy, ilmiy va texnikaviy faoliyatda – 59,5 mlrd. so'm (1,2 %), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 25,2 mlrd. so'm (0,5 %), ta'limda – 71,3 mlrd. so'm (1,4 %) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 17,6 mlrd. so'm (0,4 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.

### Ijtimoiy soha obyektlarini qurilishi


2022-yil yanvar-mart oylarida umumiy maydoni 433,2 ming kv.m. bo‘lgan 1659 ta uy-joy, shundan, qishloq joylarida 348,2 ming kv.m. bo‘lgan 1242 ta uy-joy foydalanishga topshirildi.

**Qurilish faoliyati.** 2022-yil yanvar-mart oylarida 2367,6 mlrd. so‘mlik qurilish-pudrat ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 105,0 %ni tashkil etdi.


Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 49,5 mlrd. so‘m qurilishishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan esa 2318,1 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi mos ravishda 2,1 % va 97,9 % ni tashkil etdi.

#### **Mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish tashkilotlarining o‘z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti**

(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)



**Qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati  
(2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan, %da )**



Xususan, yuqori o'sish sur'atlari Yangiyo'l (255,8 %), Ohangaron (126,2 %) shaharlarida va Yangiyo'l (133,9 %) tumanida kuzatildi.

Aksincha, eng past ko'rsatkich Bekobod (93,0 %), Piskent (92,7 %) va Qibray (85,5 %) tumanlariga to'g'ri keldi.